



## Erkin A'zamning " Farrosh kampirning tushi " komediyasida obrazlar tasnifi

**Oripova Feruza**

Nizomiy nomidagi O'zMPu Filologiya fakulteti  
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 401- guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada taniqli adib Erkin A'zamning "Farrosh kampirning tushi" komediyasidagi obrazlar tizimi va badiiy mahorat masalalari tahlil qilinadi. Asardagi markaziy qahramon — Qumri xola obrazi orqali jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish, insoniy qadr-qimmat va halollik muammolari ochib berilgan. Maqolada muallifning "tush" detalidan foydalanish mahorati, personajlar nutqidagi xarakterli xususiyatlar va asarning sotsial-psixologik mohiyati ilmiy jihatdan yoritib beriladi. Shuningdek, asardagi hajviy vositalar va rahbar kadrlar tipologiyasi qiyosiy o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:**Erkin A'zam, dramaturgiya, komediya, Poshsha xola, obrazlar tasnifi, tush detali, hajv, ijtimoiy tabaqalanish, inson qadri.

Ozod Sharafiddinov Erkin A'zam ijodini yuksak baholagan va uning o'ziga xos uslubini alohida e'tirof etgan. Adabiyotshunos olim Erkin A'zamni zamonaviy o'zbek nasrining eng mahoratli vakillaridan biri sifatida ko'rgan.

**Inson ruhiyati bilimdoni:** Sharafiddinov Erkin A'zam asarlarida qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari juda nozik va aniq tasvirlanishini ta'kidlagan. **Betakror til va yumor:** Adibning tilidagi shiradorlik, kinoya va o'ziga xos milliy yumor Ozod aka tomonidan yozuvchining "tashrif qog'ozi" sifatida ko'rsatilgan.,<sup>1</sup>

E.A'zam mazkur dramani kompozitsiyasiga yangilik qilgan holda "Diydiyoning boshlanishi" bilan boshlab oxirini "Diydiyolarningoxiri"debtugatadi. Hangoma bir tashkilotda ishlaydigan farrosh kampir Qumri opaning tushida sodir bo'ladi. Shuning uchun ham hangoma "Farrosh kampirning tushi" deb nomlandi. Hangomada farrosh kampirning tushida u ishlaydigan tashkilot Qo'yliqqa ko'chishi haqida xabar tarqaladi. Shu ishonchsiz ma'lumot asosida tashkilot xodimlari yangi ko'chiladigan binodagi xonalar ustida talashish-tortishish, eski binodagi eski jihozlarga egalik qilish haqida munozaralar boshlanib ketadi. Kuzatib turganimizdek, bu dramada ajib hangomalar hangoma qilinadi. Mohir dramaturg jamiyatda davlat beradigan moyanaga yashab, tekinox'r va boqimandalik kayfiyatiga tushib qolgan zamondoshlarimiz ustidan zaharxanda kulgi bilan kuladi.<sup>2</sup>

Erkin A'zamning "Farrosh kampirning tushi" komediyasi (hangomasi) zamonaviy jamiyatdagi byurokratiya, loqaydlik va ma'naviy qashshoqlikni hajviy

<sup>1</sup> Ozod sharofiddinov. " ijodni anglash baxti ". Toshkent "Sharq" nashriyoti ,2004-yil

<sup>2</sup> Xolmatova Nigora Yakubovna."Erkin A'zam ijodida ma'naviy-axloqiy muammolarning ifodalanishi" Toshkent,2015

bo'yoqlarda ochib beradi. Asardagi obrazlar asosan "bekorchixona" deb atalgan tashkilot xodimlari bo'lib, ularning har biri muayyan ijtimoiy illatning timsolidir.

Asar qatnashuvchilari o'zlarining xarakterli xususiyatlariga ko'ra quyidagicha guruhlanadi:

Rahbar Rahbarovich: Taxminan 40–45 yoshlardagi odatdagi amalparast rahbar timsoli. U ish emas, ko'proq kursini saqlab qolish va tashqi ko'rinish bilan band.

Muovin buva: 62–65 yoshlardagi sobiq rahbar. Hozirda "chala nafaqachi" bo'lib, og'irkarvon va bosiq ko'rinsa-da, tizimning eski sarqitlarini o'zida aks ettiradi.

Bekorchixona" xodimlari Gulibarno: 25–28 yoshlardagi "jibla-jibon" kotiba. Faqat o'ziga oro berish va yengil-yelpi hayot bilan band.

Hisobchixon: 40–45 yoshlardagi ziqlik va ayyorlikda "pixini yorgan" ayol. Moddiy manfaatdorlikni hamma narsadan ustun qo'yadi.

Mutaxassis xonim: Hayotda omadi chopmagan, biroz "merovnamo" obraz.

Farrosh kampir: Asarning ma'naviy markazi. U qulog'i og'ir bo'lsa-da, tushi orqali jamiyatdagi chirkinliklarni va haqiqatni ochib beruvchi obrazdir.

Haydovchi yigit: 30 yoshlardagi bekorchixonaning ramziy belgisi — kun bo'yi divanda uxlab, mudrab yuruvchi

Xulosa: Maqolamizda ko'rib chiqqanimizdek, asardagi har bir obraz jamiyatning ma'lum bir qatlamini aks ettiradi. Farrosh kampirning tushi esa shunchaki tasodif emas, balki uyg'onish va haqiqat ramzidir. Bu komediya o'quvchini ham kuldiradi, ham bugungi kunning og'riqli nuqtalari haqida chuqur o'ylashga majbur qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A'zam. E. Farrosh kampirning tushi. // Yoshlik. 2011. №10. – B.

2. Jo'rayev. M O'zbek adabiyotida komediya janr xususiyatlari va ularning tarixiyli: filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss... Jizzax, 2021. – B. 81-82.

3. Vohidov E. Qarzdorlik / Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida. – Toshkent:

Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. – B. 115.

4. Shofiyev O. Erkin Azam nasri badiiyati. – Toshkent: Qaqnus media, 2019.

5. A'zam. E. Ertalabki xayollar. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.

6. Erkin A'zam badiiy olami. – Toshkent: "Turon zamin ziyo", 2014.

7. Qo'chqorova M. Hozirgi o'zbek nasrida badiiy shartlilik. – Toshkent: "Fan", 2020.